



VOYAGA YETMAGANLAR ISHLARIDA ADVOKATNING MAJBURIY ISHTIROKI

Shafiyeva Mehrangiz Jamol qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: mehrangizshafiyeva@gamil.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19547759>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 11-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 13-aprel 2026 yil

KEYWORDS

voyaga yetmagan, advokat,
mudofaa, majburiy ishtirok,
jinoyat protsessi, bola
huquqlari, adolatli sud,
reabilitatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jinoyat protsessida voyaga yetmagan shaxslar ishlarini ko'rishda advokatning majburiy ishtiroki masalasi keng va atroflicha tahlil etilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik normalari, xususan Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli moddalari, xalqaro huquq standartlari (BMT Pekindagi minimum standart qoidalari, BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya), shuningdek Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning qiyosiy huquqiy tajribasi o'rganilgan. Advokatning majburiy ishtirokini ta'minlamalik oqibatlari, amaliyotdagi kamchiliklar va bu sohani takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar bayon etilgan.

Voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat jarayonlarida ishtirok etishi o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Bu toifa ishtirokchilari o'z huquq va manfaatlarini to'liq mustaqil himoya qilishga qodir emaslar, chunki ularning psixologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishi hali tugallanmagan hisoblanadi. Shu sababdan ham jahon huquq hamjamiyati voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ish yuritish protsessida ularning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekiston Respublikasining huquqiy islohot yo'lida advokatlik institutini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi Qonun¹ hamda 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga katta urg'u berilgan. Shuningdek, 2010-yil 29-sentyabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun² ham ushbu sohada maxsus normativ huquqiy hujjat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro standartlar kontekstida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha jinoyat protsessida advokatning majburiy ishtirokining huquqiy asoslarini tahlil qilish, amaliyotdagi muammolarni aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-54503>

² <https://lex.uz/mact/-1685726>

BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining³ (1989-yil, 20-noyabr) 37 va 40-moddalari voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat ishlarini yuritishda huquqiy himoyaga bo'lgan huquqini kafolatlaydi. Xususan, 40-moddaning 2(b)(ii) bandi voyaga yetmaganlarga qarshi ayblovlar haqida va zarur hollarda, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiylari orqali kechiktirmasdan va bevosita xabardor qilish hamda o'zining himoyasini tayyorlash va amalga oshirishda huquqiy hamda boshqa zarur yordam olishi huquqiga ega ekanligini belgilaydi. Agar bunday yordam imkoniyati bo'lmasa, davlat bepul huquqiy yordam ko'rsatishi shart.

Konvensiyaning 3-moddasida "bolaning manfaatlarini ustuvor ko'rish" (best interests of the child) tamoyili belgilab qo'yilgan bo'lib, bu tamoyil jinoyat protsessida ham to'liq qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani 1992-yil 9-dekabrda ratifikatsiya qilgan. Oliy Kengashning 757-XII-sonli qarori bilan mazkur xalqaro hujjatga qo'shilgan va bu mustaqil O'zbekistonning birinchi xalqaro majburiyatlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (ICCPR, 1966) 14-moddasi adolatli sud ko'rishning universal kafolatlarini belgilaydi. Jumladan, 14(3)(d) bandi ayblanuvchining o'zi tanlagan mudofaachi bilan bo'lishiga yoki bepul mudofaachi tayinlanishiga (agar bu adolat manfaatlariga mos kelsa) erishishi ta'minlanadi.⁴ Voyaga yetmaganlar uchun bu talablar yanada kuchaytirilib qo'llaniladi.

Voyaga yetmaganlar ishlarida advokatning majburiy ishtiroki masalasini O'zbekiston Respublikasining qonunchilik normalari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasida himoyachining ishtirok etishi shart bo'lgan hollar keltirilgan bo'lib, ushbu moddaning birinchi bandiga asosan voyaga yetmaganlarning ishi bo'yicha himoyachining ishtiroki majburiy hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu kodeksining 60-bobi voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishga bag'ishlangan bo'lib, 550-moddasiga asosan voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilishdan boshlab, surishtiruvchi yoki tergovchi ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlash choralarini ko'radi. Shu maqsadda voyaga yetmagan shaxsga va uning qonuniy vakiliga o'zlari xohlagan himoyachini taklif etish huquqiga ega ekanligi tushuntiriladi. Agar himoyachi voyaga yetmagan shaxsning, uning qonuniy vakilining yoki boshqa shaxslarning topshirig'i yoxud roziligi bilan chaqirilmagan bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini o'z tashabbusi bilan ta'minlashga majburdir.⁵ Ya'ni ushbu normaning mazmunidan shuni anglash mumkinki, voyaga yetmagan shaxslar uchun ishda himoyachining ishtiroki majburiy hisoblanadi. Shu bilan birga, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilish ham himoyachi va qonuniy vakil ishtirokida amalga oshiriladi.

Qonunchilikka asosan protsessual huquq normalarining moddiy buzilishi (shu jumladan majburiy advokat ishtirokini ta'minlamaslik) jinoiy ishni yuritishning asosini yo'qotadi va qabul qilingan qarorlarni bekor qilish asosi hisoblanadi. Amaliyotda sudlar bir qator hollarda aynan shu asosda birinchi instansiya sudlarining hukm va qarorlarini bekor qilgan.

Huquqiy oqibatlar quyidagicha:

³ BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-2595913>

⁴ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt.1966-yil. <https://lex.uz/docs/-2640479>

⁵ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460>

- Protsessual hujjatlar (so‘roq bayonnomalari, yuzlashtirish materiallari va boshqalar) huquqiy kuchini yo‘qotishi mumkin;
- Yuqori instansiya sudi hukm yoki qarorni bekor qilib, ishni qayta ko‘rishga yuborishi mumkin;
- Davlat xodimi (tergovchi, prokuror, sudya) intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin;
- O‘zbekiston Inson huquqlar bo‘yicha milliy instituti yoki xalqaro tuzilmalarga shikoyat asosi vujudga keladi.

Oliy Sud Plenumining 2000-yil 15-sentabrda qabul qilingan “[Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida]”gi 21-sonli qaroriga binoan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda shuni nazarda tutish lozimki, ayblanuvchi bu paytga kelib voyaga yetgan-yetmaganligidan qat’i nazar, bunday ishlar bo‘yicha advokat hamda qonuniy vakil ishtirok etishi shart. Ushbu qoida shaxs jinoyatlardan birini 18 yoshga to‘lmasdan oldin, boshqasini voyaga yetganidan so‘ng sodir etganlikda ayblangan hollarda ham amal qiladi.⁶ Himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan hollarda uning ishtirokisiz aniqlangan har qanday dalil yuridik kuchga ega emasdir.

Qiyosiy huquqiy tahlil: xorijiy tajriba. Rossiya Federatsiyasi Oliy Sudi Plenumining 2011-yil 1-fevraldagi 1-sonli qarorida (2014-yil 28-yanvar, 2017-yil 29-iyun, 2019-yil 18-dekabrda o‘zgartirishlar kiritilgan) voyaga yetmaganlar ishlarini yuritishda advokat ishtiroki protsessual kafolat sifatida ta’kidlangan. Qarorga ko‘ra, voyaga yetmagan shaxsga himoyachi ishtiroki ta’minlanmagan holda olingan ko‘rsatmalar yo‘l qo‘yilmaydigan dalil deb topiladi va ishni bekor qilishga asos bo‘ladi. Germaniyada voyaga yetmaganlar jinoyat protsessini maxsus tartibga soluvchi **Jugendgerichtsgesetz**⁷ (JGG — Yoshlar sudi to‘g‘risidagi qonun, 1953) mavjud. Ushbu qonunning 68-paragrafiga ko‘ra, voyaga yetmagan ayblanuvchiga advokat tayinlanishi majburiy bo‘lib, bu funktsiya ko‘pincha ixtisoslashgan “Jugendgerichtshilfe” (yoshlar sudiga yordam) xizmati tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi. Germaniya modeli “resotsializatsiya” (qayta ijtimoiylashtirish) tamoyiliga asoslangan — jazolashdan ko‘ra tuzatish va qayta jamiyatga kiritish ustuvor. Qozog‘iston Respublikasining Jinoyat Protsessual kodeksida ham voyaga yetmagan jinoyat ishtirokchisiga nisbatan majburiy advokat tayinlash qoidasi yanada kengaytirilgan. Ukraina, Belarus va Qirg‘iziston ham o‘z qonunchiligida xuddi shunday majburiy ishtirok talabini belgilagan. Yuqoridagi tahlillar asosida sanab o‘tilgan ushbu davlatlarning qonunchiligi O‘zbekiston uchun ham qiyosiy manba bo‘la oladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyat protsessidagi huquqiy himoyasi masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Ushbu sohadagi asosiy nazariy yondashuvlarni quyidagi mualliflar ishlarida ko‘rish mumkin:

Barry Feld (“Bad Kids: Race and the Transformation of the Juvenile Court”, 1999) amerikalik kriminolog sifatida voyaga yetmaganlar sudining transformatsiyasini tahlil qilib, ular uchun kattalar bilan teng huquqiy himoyani ta’minlash zarurligini asoslaydi. U

⁶ Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 21-sonli qarori. <https://www.lex.uz/docs/-1449720>

⁷ Jugendgerichtsgesetz <https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/BJNR007510953.html>

advokatning passiv ishtirokini "vazifasiz qatnashish" (appearance without assistance) deb tanqid qiladi.⁸

Robert Shepard ("Juvenile Justice Standards Relating to Counsel for Private Parties", IJA-ABA, 1980)⁹ voyaga yetmaganlar advokatining ixtisoslashuvi uchun standartlarni ishlab chiqishga hissa qo'shgan. Uning tadqiqotlari asosida AQShda voyaga yetmaganlar advokatlarning malaka talablari shakllandi.

Qonunchilik normalarining mavjudligiga qaramasdan, amaliyotda bir qator jiddiy kamchiliklar kuzatilmoqda. Aksariyat hollarda voyaga yetmagan shaxs ushlab olingan yoki so'roqqa tutilgandan so'nggina, ba'zan esa dastlabki ko'rsatmalar berilgach, advokat jalb etiladi. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ixtisoslashgan advokatura instituti hali to'liq shakllanmagan. Advokatura institutlarida voyaga yetmaganlar psixologiyasi, bolalar va o'smirlar bilan muloqot usullari, voyaga yetmaganlar jinoyat protsessining o'ziga xosliklari bo'yicha alohida tayyorgarlik yo'nalishi mavjud emas. Bu esa ko'pgina holatlarda tayinlangan advokatning voyaga yetmagan shaxsning psixologik holatini tushunmay, uni to'g'ri himoya qilmasligi ehtimolini oshiradi.

Shu bilan birga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimida advokatlarga to'lanadigan haq miqdori juda past bo'lib, bu ixtisoslashgan advokatlarning voyaga yetmaganlar ishlarini qabul qilishga qiziqishini kamaytiradi. Huquqiy yordam jamg'armasi resurslari cheklanganligi tufayli ba'zi hududlarda tayinlangan advokatlar o'z ishiga yetarli vaqt ajrata olmaydi.

Statistika. O'zbekistonda 2025-yilda voyaga yetmaganlar 3 266 ta jinoyatga qo'l urgan. Bu jami jinoyatlarning 2,1 foizini tashkil etgan. Shundan 2 554 tasi oldini olish mumkin bo'lgan, 321 tasi aniqlangan, 391 tasi axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 65,5 foizi 5 ta hudud hissasiga to'g'ri kelgan: Toshkent shahrida 634 ta, Farg'onada 482 ta, Namanganda 371 ta, Toshkent viloyatida 345 ta va Samarqandda 308 ta. Oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning har ikkinchisi (1 313 ta) o'g'rilik ekani aniqlangan. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan 84 ta firibgarlik, 193 ta bezorilik, 68 ta og'ir tan jarohati yetkazish, 68 ta transport vositasini olib qochish, 36 ta nomusga tegish, 17 ta bosqinchilik hamda 15 ta qotillik jinoyatlari sodir etilgan.¹⁰

Yuqorida tahlil qilingan muammolarni bartaraf etish va voyaga yetmaganlarning jinoyat protsessidagi huquqiy himoyasini mustahkamlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- Advokat ishtirokisiz olingan voyaga yetmagan shaxslar ko'rsatmalarini avtomatik ravishda haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi normani qonunchilikka kiritish;
- Barcha viloyatlarda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ixtisoslashgan advokatlar ro'yxatini shakllantirish va ularni advokatura palatasi tomonidan sertifikatlashtirish mexanizmini joriy etish;
- Bepul huquqiy yordam jamg'armasini mustahkamlash va voyaga yetmaganlar uchun tayinlangan advokatlarning haq miqdorini oshirish;

⁸ Barry Feld ("Bad Kids: Race and the Transformation of the Juvenile Court" 1999)

<https://www.jstor.org/stable/27895219>

⁹ Juvenile Justice Standards Relating to Counsel for Private Parties.

<https://digitalrepository.unm.edu/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1804&context=nmlr>

¹⁰ <https://kun.uz/news/2026/01/24/2025-yilda-voyaga-yetmaganlar-tomonidan-15-ta-qotillik-jinoyati-sodir-etildi>

— Advokatning ishtirokini tekshiruvchi mustaqil monitoring tizimi (prokuratura, advokatlik palatasi va fuqarolik jamiyati ishtiroki asosida) yaratish.

Xulosa qilish shuni aytish mumkinki, jinoyat protsessida voyaga yetmaganlar ishlarida advokatning majburiy ishtiroki — bu nafaqat protsessual talab, balki bolalar huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligi ushbu sohada xalqaro standartlarga asosan to'g'ri yo'nalishda shakllantirilgan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator tizimli kamchiliklar mavjud. Advokatning kechiktirilgan jalb etilishi, ixtisoslashuv tizimining zaifligi, "rasmiy ishtirok" va "samarali himoya" o'rtasidagi tafovut hamda moliyaviy ta'minot muammolari tezkor hal etishni talab etadigan ustuvor masalalar hisoblanadi. Bu muammolarni bartaraf etmasdan turib, voyaga yetmaganlarning haqiqiy huquqiy himoyasini ta'minlash mumkin emas. Yuqorida bayon etilgan qonunchilik va amaliy takliflar amalga oshirilsa, O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida voyaga yetmaganlar huquqiy himoyasi sohasida xalqaro standartlarga to'liq mos keladigan zamonaviy tizimni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-54503>
2. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun. <https://lex.uz/mact/-1685726>
3. BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi. <https://lex.uz/docs/-2595913>
4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt.1966-yil. <https://lex.uz/docs/-2640479>
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111460>
6. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 21-sonli qarori. <https://www.lex.uz/docs/-1449720>
7. Jugendgerichtsgesetz <https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/BJNR007510953.html>
8. Barry Feld ("Bad Kids: Race and the Transformation of the Juvenile Court" 1999) <https://www.jstor.org/stable/27895219>
9. Juvenile Justice Standards Relating to Counsel for Private Parties. <https://digitalrepository.unm.edu/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1804&context=nmlr>
10. <https://kun.uz/news/2026/01/24/2025-yilda-voyaga-yetmaganlar-tomonidan-15-ta-qotillik-jinoyati-sodir-etildi>